

## **BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI AUDITNI BIRLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH.**

*Ergashev Olloyor Furqat og'li*

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali assistenti  
eolloyor@mail.ru*

*Uvaydullayeva Marjona Saydullo qizi*

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali talabasi  
marj0naaa03@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada buxgalteriya hisobi va ichki auditni birlashtirish orqali samaradorlikni oshirish jarayonida takliflar, ko'rsatmalar uning natijalari to'g'risida afzalliklari bayon etiladi.

**Kalit so'zlar.** Buxgalteriya hisobi, ichki audit, Samaradorlikni oshirish, Integratsiya, Moliya nazorati, Risklarni boshqarish.

Bugungi kunda korxonalarning muvaffaqiyatli faoliyati uchun ichki nazorat va buxgalteriya hisobining samarali ishlashini ta'minlash zarur. Buxgalteriya hisobi va ichki audit bir-birini to'ldiruvchi funksiyalarga ega bo'lib, ularning o'zaro hamkorligi tashkilotda moliyaviy barqarorlik va ish jarayonlarining shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Buxgalteriya hisobi tashkilotning moliyaviy holatini, daromad va xarajatlarini, shuningdek, moliyaviy hisobotlarni qayd etadi. Bu hisob-kitoblar to'g'ri va aniq amalga oshirilgan taqdirda tashkilotning moliyaviy boshqaruvi samarali bo'ladi. Buxgalteriya hisobining samarali ishlashi ichki auditning to'g'ri va o'z vaqtida tekshiruvlari bilan yanada mustahkamlanadi. Ichki audit esa tashkilot ichida moliyaviy va operatsion jarayonlarning to'g'riliqini, samaradorligini va qonuniyligini nazorat qiladi. Ichki auditorlar buxgalteriya hisobi jarayonlarini, moliyaviy hisobotlarning to'g'riliqini tekshirish, shuningdek, tashkilotning ichki nazorat tizimini baholash bilan

shug‘ullanadilar. Ichki auditning asosiy vazifasi-potentsial xatoliklar va firibgarliklarni aniqlash, shuningdek, biznes jarayonlarini optimallashtirishga ko‘maklashishdir.

Buxgalteriya hisobi va ichki auditni birlashtirishning afzalliklari.

#### 1. Moliyaviy ma'lumotlarning aniq va ishonchli bo‘lishi

Buxgalteriya hisobi va ichki auditni birlashtirish orqali korxona moliyaviy ma'lumotlari yanada ishonchli va aniqlashadi. Ichki audit buxgalteriya hisobi jarayonlaridagi xatoliklarni, noo‘rinliklarni va soxta ma'lumotlarni aniqlashda yordam beradi. Bu korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish va investorlar, kreditorgacha ishonchli hisobot taqdim etishda muhimdir.

#### 2. Ichki nazorat tizimining kuchayishi

Buxgalteriya hisobi va ichki auditning birlashuvi ichki nazorat tizimining samaradorligini oshiradi. Ichki auditorlar buxgalteriya hisobi jarayonlarini kuzatib borishi va zarur tekshiruvlarni amalga oshirishi, xatoliklar va firibgarliklar risklarini kamaytiradi. Bu nafaqat moliyaviy xavfsizlikni ta'minlaydi, balki tashkilotning o‘sishi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

#### 3. Resurslarni tejash va samaradorlikni oshirish

Buxgalteriya hisobi va ichki auditni birlashtirish tashkilotda resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. Birgalikda ishlash orqali texnik xatoliklar va boshqaruvda bo‘ladigan noaniqliklarni kamaytirish, vaqt ni va xarajatlarni tejashga imkon yaratadi. Auditorlarning buxgalteriya ma'lumotlariga doimiy kirish imkon bo‘lsa, ular tekshirishni samarali va tezda amalga oshirishlari mumkin.

#### 4. Xatarlarni boshqarish va optimallashtirish

Buxgalteriya hisobi va ichki auditning integratsiyasi xatarlarni boshqarishning samarali usulini taqdim etadi. Ichki audit jarayonida tashkilotdagi moliyaviy va operatsion xatarlar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berilishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida tashkilotning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi va kelajakdagi xatarlarni minimallashtiradi.

Buxgalteriya hisobi va ichki auditni birlashtirish bo‘yicha takliflar:

1. Buxgalteriya hisobi va ichki audit bo‘limlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash

Buxgalteriya hisobi va ichki audit bo‘limlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va hamkorlikni oshirish zarur. Bu o‘zaro aloqa tashkilotdagi barcha operatsiyalar va moliyaviy jarayonlarning to‘g‘ri nazorat qilinishini ta‘minlaydi. Bu ikki bo‘limning o‘zaro ishonchi va malakali ishchi kuchi birlashtirilgan holda, yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

### 2. Audit jarayonlarini avtomatlashtirish

Buxgalteriya hisobi va ichki auditning samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarur. Moliyaviy ma'lumotlarni avtomatik ravishda yig‘ish va tahlil qilish, audit jarayonlarini qisqartirish va xatoliklarni kamaytirish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida vaqt ni tejashga yordam beradi va auditni yanada samarali qiladi.

### 3. Muntazam treninglar va malaka oshirish

Buxgalteriya hisobi va ichki audit bo‘limlarida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning malakasini oshirish va zamonaviy usullarni o‘rganish muhimdir. Treninglar tashkilot ichida doimiy ravishda amalga oshirilishi kerak. Bu orqali xodimlar yangi texnologiyalar va metodlarni o‘zlashtirib, ish jarayonlarining samaradorligini oshiradilar.

Buxgalteriya hisobi va ichki auditni birlashtirishda tashkilotlar uchun samaradorlikni oshirishning muhim vositasidir. Ular o‘zaro to‘ldiruvchi funksiyalarni bajarib, moliyaviy va operatsion jarayonlar samaradorligini ta‘minlashga yordam beradi. Birgalikda ishslash orqali tashkilotlar xatarlarni kamaytirish, resurslarni tejash, va shaffof ish yuritishni ta‘minlashlari mumkin. Kelajakda bu ikki sohaning integratsiyasini yanada kuchaytirib tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

## Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, Ichki audit va nazorat to‘g‘risidagi qonunlar, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlari.
2. **Abdulvafoev, A. & Axmedov, S.** (2021). *Buxgalteriya hisobi va audit: nazariya va amaliyot*. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
3. **Boymurodov Q., Yo‘ldoshev M. va boshqalar.** (2015). *Buxgalteriya hisobi va audit*. Toshkent: Iqtisodiyot.
4. Axmedova, N. (2020). O‘zbekiston sharoitida kichik biznesda ichki audit tizimining o‘ziga xosliklari. Toshkent: "Iqtisodiyot va moliya".
5. **Mogilov O., Egamberdiev R. va boshqalar.** (2018). *Moliyaviy audit*. Toshkent: Iqtisodiyot.
6. **Messier, W. F., Glover, S. M., & Prawitt, D. F.** (2016). *Auditing & Assurance Services: A Systematic Approach*. McGraw-Hill Education.